

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI ZAHIRIDDIN
MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON
DAVLAT UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

“Maqollar so‘z san‘ati mahsuli”

mavzusida tayyorlagan

KURS ISHI

BAJARDI: Xotamova Nargiza

ILMIY RAHBAR: K. Shaxobov

ANDIJON 2014

Reja

Kirish

I bob. Birinchi fasl . Folklor asarlari – xalq hayotining ko’zgusi
Ikkinchi fasl . O’zbek xalq she’r tuzulishida qofiya va uning unsurlari
haqida

II bob .Birinchi fasl. Maqollar so’z san’ati mahsuli
Ikkinchi fasl . Maqollarda qofiya san’ati
Xulosa .

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Xalqimiz mustaqillikka erishgach, o'zbekona urf-odatlar, rasmlar, asrlar davomida yaratilgan xalq og'zaki durdonalari o'zining haqiqiy bahosini topdi. Prezidentimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shunday degan edi: "xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan – avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarga tarix to'fonlaridan, hayot – mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan, el-yurtimizning bag'rikenglik matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlarini o'z ifodasini topgan.

Shu bois "Alpomish" dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'stu yorimizni, ornomusimizni ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan ximoya qilishiga o'rgatadi." ¹ Bu purhikmat so'zlar xalq og'zaki ijodiga, uning qimmatiga berilgan munosib bahodir. Xalq og'zaki ijodi durdonalari o'zining eng qadimiy va betakrorligi, yuksak ijodiy salohiyatga ega ajdodlarimizning ko'p asrlik an'analari, turmush-tarzi, tarixi, dunyoqarashi, turli e'tiqodlari haqida teran va mukammal ma'lumot beruvchi ma'naviy va madaniy oltin merosimiz hisoblanadi. Ertak, rivoyat, doston, qo'shiq, afsona, maqol, topishmoq kabi xalq og'zaki ijodi na'munalari barkamol avlod tarbiyasiga kuchli badiiy-estetik va ruhiy-ijtimoiy ta'sir ko'rsatish qudratiga ega. Binobarin, xalq og'zaki ijodini o'rganish, ularni targ'ib va tadqiq qilish orqali xalqimiz ma'naviyatiga oid yangi-yangi ma'lumotlarni bilib olish mumkin. Eng, muhim, xalq og'zaki durdonalari yoshlarimiz tafakkurini bebaho unjular bilan boyitadi.

Folklyor asarlari xalq hayotining ko'zgusi va o'zbek xalqi hayotining bebeho qomusi hamdir. Uning eng go'zal, qiziqarli janrlarini, ularning o'zaro munosabatlarini tahlil etish, doston, ertak yoki boshqa janrning o'ziga xos tomonlarini, obrazlar tizimi va genezisini, badiiyatini o'rganish folklyorshunoslarimiz oldida turgan dolzarb masalalaridan biridir. Zero, xalq ijodi ajdodlarimizning uzoq o'tmishi va hozirgi kundagi orzu-istaklari, ruhiyati, tarixini to'la tasavvur etish qiyin.

O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari asrlar mobaynida yaratilib, sayqallanib, mavzu va g'oyaviy jihatidan boyib bordi. Tillardan tillarga, dillardan dillarga, ellardan ellarga ko'chdi. Xalqning hayoti, kurashi, orzu-umidlari ko'tarinki tarzda o'z ifodasini topgan. Sharq

xalqlarining “Ming bir kecha”, “Qirq vazir”, “To’tinoma” kabi kitoblarining hanuzgacha xalq orasida mashhurligining siri shunda bo’lsa kerak, albatta. Zukko va donishmand xalqimizning ijodi uzoq yillik tarixga ega. Bu jihatdan shoir Hamid Olimjonning quyidagi fikrlari e’tiborga molikdir: “Xalq o’z boshidan qora kunlarni kechirib turgan bir vaqtda ham yaratadi, ijod qiladi. Mamlakat qabriston tinchligiga kirgan va unda hokim feodalarning jarchilari qichqirib turgan vaqtda ham xalq yaratar edi. Reaksiyaning eng qora yillarida, mehnatkash xalq orasida yuz bergan har qanday intilishi bo’g’zida bo’g’ilib turgan kunlarda ham yaratar, kuylar edi. O’zbek xalqining yuksak aql – zakovati mujassam bo’lgan “Erxubbi”, “To’maris”, “Shiroq”, “Guldursin” singari yuzlab afsonalari, “Alpomish”, “Go’ro’g’li”, singari turkum dostonlari, minglab ertak, latifa, terma, qo’shiq, topishmoq, maqol va matallari fikrimizning yorqin dalilidir. Bu noyob durdonalarda xalqimizning yaratuvchilik, zukkolik, donolik kabi fazilatlarini o’z ifodasini topgan. Mazmunan boy, shaklan go’zal bu badiiy boyliklarimiz hozirgi kunda xalqimizga va millionlab zamondoshlarimizga xizmat qilmoqda. Tadqiqotimizning dolzarbligini ana shulardan kelib chiqqan holda belgilash mumkin.

I BOB birinchi fasl

Folklor asarlari – xalq haëmining ko’zgusi

Xalq ijodi adabiyotning beshigidir. Sero, ulug’ rus yozuvchisi M.Gorkiy yozganidek “O’g’zaki ijodning yozma adabiyotga ta’siri алоҳида аҳамyatga ega va shubhasizdir. Qadim zamonlardan buyon varcha davr va barcha mamlakat yozuvchilari ertak mavzularidan foydalanib keladilar... Badiiy adabiyotning xalq og’zaki ijodiga formal ma’naviy va didaktik tobeligi mutlaqo shubhasiz va juda ibratlidir”¹

Folklor asarlari bir kishining emas, ko’pchilikning ijodidir. Binobarin, dostonu ertaklarimiz, topishmoq va qo’shiqlarda xalq orasida chiqqan iqtidorli kishilarning xizmatlari kattadir. Xalqning dili va tilidagini ifodalovchi folklor asarlari yuksak tarbiyaviy ahamyatga egadir. Atoqli olim G.S. Vinogradov bejiz “Ertakchilik qadimdam bor, uning formalari juda puxta ishlangan, u hozirgi vaqtgacha xalq pedagogikasi tomonidan muvaffaqiyat bilan фойдаланиб kelingan edi, keyingi vaqtda esa ilmiy pedagogikaga ham o’tadi.”¹ Folklor asarlarining ko’pchilik ijodiga хос xususiyatlarini V.Belinskiy, G.Chernishevskiy kabi rus tadqiqotchilari ham алоҳида таъkidlaganlar. G.Chernishevskiy xalq qo’shiqlarining “butun xalq tomonidan bir shaxsning dilidagidek qilib ijod etilgani”ni qayd etadi, folklor asarlarining yozma adabiyotidan farqini ham shunda ko’radi.²

Folklor asarlari xalq orasida tarqaladi, qayta-qayta ishlanib sayqal topadi. Xalq orzaki poetik ijodiyotidagi mahopat avloddan – avlodga o’tadi. Xalq og’zaki ijodi poetik namunalari

xalq donishmandlari tomonidan to'ldirilib, rivojlantirilgan holda keyingi avlodlarga yetkaziladi.³ Demak, folklor asarlarining ijodkori – xalq. Folklor asarlari haqqoniy haëtiy zaminga asoslangan holda xalq ommasi tomonidan yaratiladi. Hap bir ertak yoki doston aytuvchi, umuman, folklor asarlarini ijod etuvchilar katta haëtiy tajribaga ega bo'lgan, ko'pni ko'rgan, haëtning achchiq – chuchugini, past – balandini ko'p ko'rgan, aqlli va bilimli insonlardir. Shuning uchun ham V.M Jirmunskiy bilan X.T Zarinovlar xalq baxshilari haqida gapirganlarida ularning xalq ichidan chiqqanini ta'kidlaganlar. Folklor ijodkorlari haëtidan olgan tajribalari va saboqlari asosida doston, ertak, afsona, maqol va qo'shiqlari ijro etadilar, ularda xalq istaklari, orzu umidlarini tarannum etadilar va bu ijod namunalari zamon ruhini singdirib boradilar. Chunonchi mo'g'ul istilochilariga qarshi kurash zaminida yaratilgan “Guldursun” ertagida O'rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi kurashish tasvirlangan.¹ “Chambil qamali”, “Chambil mudofaasi” dostonlarida esa O'rta Osiyo xalqlarining chet bosqinchilariga qarshi kurashi romantic bo'yoqlarda tarannum etiladi.

“Alpomish” dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma'naviy boyligimizning yorqin na'munasi bo'lib, tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday tabiiy – ijtimoiy muhitda shakillanib, rivojlanganini, ajdodlarimizning o'z davrlarda ham jamoa bo'lib, birgalikda yelkadosh bo'lib, o'z boshiga tushgan qiyinchiliklarni birgalikda yengib yashaganini yorqin bo'yoqlarda tasvirlab beradi.

Shu o'rinda asardagi kichik bir misolga murojaat qilaylik. Ota – bobolarimizning qadimiy tasavvuriga ko'ra, o'q – yoy hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish yetti yoshida o'n to'rt botmon birichdan – bronzadan yasalgan yoydan o'q otib, “alp” degan unvonga ega bo'lgan. Alp degani hokimiyat egasi ekanini inobatga olsak, bu doston ko'p asrlik milliy davlatchiligimizning badiiy ifodasi ekaniga ham ishonch hosil qilamiz.²

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodida xalq haëridagi hap bir munim o'zgarish va yanqinliklar o'z ifodasini topadi. Chunonchi, “Farhod va Shirin” haqidagi folklor asarini olib ko'raylik. Shu nomli ertak, afsonalarda sof sevgi, muhabbat mavzusi cho'lga suv chiqarish, cho'lni obod etish masalasi bilan bog'lab beradi. Bu mehnat aholining ko'p asrlik orzu – umidlarini o'z asarlarida bayon etganliklarini ko'rsatadi, albatta.

Folklor asarlari jamoa tomonidan yaratilgani uchun ularda mujassamlangan obrazlar katta mahopat bilan yaratilgan va ular bir – birini takrorlashmaydi. Xullas, xalq ertaklari, doston va afsonalari, qo'shiqlari haqqoniy va go'zaldir.

Folklor asarlarining usuli janriga qarab rang – barang bo'ladi. Chunonchi, maqol topishmoqlar, afsona va rivoyatlar, latifa va loflar, ertaklar, qo'shiqlar, termalar, askiya va dostonlar, yor – yoru allalarning hap birining usuli o'ziga xosdir. Masalan, “Alpomish”

dostoni bilan “Malika ayyor” yoki “Orzigul” dostoni bir – biridan tubdan farq qiladi. Boisi “Alpomish” dostonida vatanparvarlik g’oyasi yetakchilik qilsa, “Malika ayyor” va “Orzigul” dostonlarida ishq – muhabbat, mehr – oqibat tuyg’ulari yetakchi o’rin tutadi. Hayvonlar haqida ertaklar сeһpли ertaklardan, maqollar qo’shiqlardan uslub jihatdan faqr qiladi.

Folklor asarlarining asosiy poetik xususiyatlariga folklorshunos F.Jalolov shunday ta’rif beradi: “Folklor asarlarining asosiy poetik xususiyatlarida biri minglab, yuz minglab kishilarda poetik zavq va shavq uyg’ota olishlari, ularning poetik formasi butun xalq g’oyasi, fikrini o’z ichiga qamrab olishi, kishilarning ijtimoiy munosabatlaridagi asosiy xususiyatlari butun xalq manfaatini nuqtai nazaridan yoritilishi, ochib berilishidadir. Ularda mavxum, murakkab voqea va obrazlar bo’lmaydi, yozma adabiyotdagi kabi voqealarni ataylab murakkablashtirib, uzoq sir tutib turish ham yo’q.

Shuning uchun ham asar boshlanganidanoq eshituvchilarning mehri, simpatiyasi ijobiy qahramon tomoniga o’tadi.”¹ Buni xalqimizning sevimli doston “Rustamxon” dagi Rustamxon, Go’ro’g’li turkumidagi dostonlaridagi Go’ro’g’li, Avazxon, Yunus nari, “Ozodchehra” , “Malika Xusnobod” kabi ertaklarining qahramonlari misolida yaqqol ko’rishimiz mumkin.

Ma’lumki, xalq oғzaки ijodi yozma adabiyotdan an’anaviylik, og’zakilik va improvizatorlik, jamoalik va ommaviylik, variantlilik va versiyalik, anonimlik kabi xususiyatlari bilan farqlanadi. Chunonchi, uzoq vaqt davomida xalq tajribasidan o’tib odat tusiga kirgan an’anaviylikni olib ko’raylik.

Folklor asarlarining matni janrlarga ko’ra doimiy ravishda takrorlanib turadigan qismlarga ega. Chunonchi, ertaklarning boshlanishi, yakunlanishi, dostonlardagi qahramonlarning ot egarlashi, poygada qatnashishi, qahramonlik ko’rsatishi kabi lavhalar asrlardan asrlarga ko’chib o’taveradi. Shuningdek, doston va ertaklardagi farzandsizlik, shartning buzilishi, safarga chiqish, qahramonlarning turli to’siqlarni bosib o’tishi, jumboqlarni yechishi, to’y kabi voqealar ham an’anaviylikka xosdir.

O’g’zaki ijoddagi topishmoqlar maqolu matallardan tortib doston va qo’shiqlargacha og’zaki tarzda aytiladi. Bu folklorga xos xususiyatddir. Improvizatorlik atamasi badihago’ylik ma’nosini bildiradi. Bu xolatni qo’shiq, ertak, askiya, latifa kabi janrlar ijrosida kuzatish mumkin.

Xalq o’g’izaki ijodiga jamoalik xususiyati aloҳида o’rin tutadi. Chunki xalq ijodi na’munalari jamoa tomonidan yaratiladi.

Bir xil mazmundagi yozilgan roman yoki qissani uchratish qiyin. Lekin folklor asarlarida bir asarning syutet va kompozitsiyasida muhim o’zgarishlar bilan bir necha

nusxalarga ega bo'lishi xalq o'zaki ijodidagi variantlik xususiyatiga egadir. Chunonchi, "Alpomish" dostonining o'ttizdan ortiq varianti bor.

Versiyalilik variantlikka nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, versiyada asarning nomi va voqealar rivoji tubdan farq qiladi. Masalan, "Alpomish" dostonining Qo'ng'iroq, qipchoq va oltoy versiyalari, yangi to'rtta versiyasi qayd etilgan. Bu versiyalar faqat umumiy voqealari bilangina "Alpomish" dostoni eslatadi. Shuningdek, "Tohir va Zuhra" dostoning qozoq xalqida "Qo'zi Ko'rpeshe va Bayan suluv" versiyasi mavjud. Lekin ular mutlaqo boshqa-boshqa dostonlardir.

Anonimilik deganda asar yaratuvchisining nomi no'malum ekanligi ko'zda tutiladi. Xalq o'zaki ijodi namunalari ko'pchilik tomonidan yaratilganligi uchun xalq ularda asarni yaratuvchining nomi qayd etilmaydi.

Bir so'z bilan aytganda, o'zbek xalq o'zaki ijodijamlarga boy va rang-barang mavzulardagi asarlarni o'z ichiga oladi.

O'zbek xalq o'zaki ijodida qofiya masalasi juda keng va murakkab, shu bilan birga o'rganilmay kelinayotgan muammolardir.

Shu xolatlarni xisobga olib, tahlil doiramizni biroz chegaralab olib, o'zbek xalq maqol va topishmoqlarda qofiya mavzusini tadqiq etishni lozim topdik. Monografiyada, asosan qofiya va uning funksiyasi, qofiyaning katta g'oyaviy va estetik vazifani bajarishi, ammo qofiya faqat poeziyaga xos xodisa emasligi, qofiyaning ba'zi qonuniyatlari, qofiyadoshlik darajalari, misralarda qofiya tartibi, qofiya turlari, qofiya san'atlari, qofiya ayiblari, maqol va topishmoqlardagi qofiyalarning o'ziga xos xususiyatlari masalasiga aniqlik kiritishga e'tibor qaratildi. Qofiya xususiyatidagi bahs va munozaralar va turli qarashlar o'zbek xalq o'zaki ijodi namunalari asosida tahlil etildi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek "O'zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmat, ornomusi va shon sharafi, uning o'ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangan". Ayni chog'da: "O'z xalqiga, uning an'alariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatanining jonkuyarlarini tarbiyalash mumkin emas"¹ Shubhasiz, bu borada xalq o'zaki ijodining o'rni beqiyosdir.

Xalq o'zaki ijodi na'munalaridan ma'lumki, xalqimiz o'z avlodiga insoniyat tarixidagi eng ibratli fazilatlar meros bo'lib qolishini, avlodi hap tomonlama yetuk va barkamol bo'lishini orzu qilgan. Zero "Alpomish", Go'ro'g'li turkumi dostonlarida shaxs g'ururi, Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat, elga xizmat qilish, mamlakatni obodonlashtirish istagi yetakchi g'oya darajasida ilgari surilrni bejiz emas. Xalqimizning

sharqona fazilatlarini, falsafasi, dunyoqarashi, turli haʼriv voqealarga munosabati esa uning maqollarida oʻz ifodasini topgan. Xalqimizning ilm-hunariga, oilaga, mehnatga, Vatanga, ahillikka, mardlikka boʻlgan munosabatini anglash uchun xalq maqollari bilan tanishish kifoya qiladi. Boisi xalq maqollarida Vatan, xalq, ona, ilm, gʻurur naqadar muqaddas tushunchalar ekanligi donishmandona ifodalab berilgan.

Xullas, xalq oʻzgaki ijodi, doston, ertak, qoʻshiq, maqol, matal, topishmoq va boshqa janrlarda ilgari surilgan insonparvarlik va vatanparvarlik gʻoyalari, ularning oʻquvchiga bir olam zavq-shavq bagʻishlash, asrlar davomida yoki avlodni tarbiyalash vosiyasi boʻlib kelganligi haqida juda koʻp gaqirish mumkin. Barkamol avlodni tarbiyalashda, milliy mafkuramizni shakllantirish va rivojlantirishda folklor namunalari munosib oʻringa egadir. Shunday ekan, xalq oʻgizaki ijodiga qadryatlarimizning tarkibiy qismi sifatida munosabatda boʻlish, folklor asarlarni oʻqib – oʻrganish, ularda ifodalangan purhikmat soʻzlarni qalbimizga, ongi shuurimizga muxrlab olish, ular bilan gʻururlanish muhim ahamiyat kasb etishini doimo yodimizda tutaylik.

Ikkinchi fasl

Oʻzbek xalq sheʼr tuzilishida qofiya va uning unsurlari haqida

Maʼlumki, qofiya sheʼriy asarlarda badiiyatning asosiy qirralaridan biri hisoblanib qolgan. Zero, sheʼriy asarlarning salohiyati ularda qoʻllangan gʻoyalar mazmun-mohiyati, timsollar qiyofasini ochishdagi ahamiyati, qofiyalarning maʼnaviy teranligi, ohangdorligi va jozibadorligi bilan belgilangan. Qofiyaning xilma – xil turlaridan va sanʼatlaridan, vazn va qofiya munosabatlaridan mahorat bilan foydalanish asarning oʻqimishililigini va taʼsirchanligini taʼminlaydi.

Qofiya va sheʼriy sanʼatlar haqida juda koʻp bahs va munozaralar bayon etilgan, oʻnlab ilmiy asarlar yaratilgan. Mumtoz adabiyotimizda yuzdan ziyod maʼnaviy, lafziy va mushtarak xarakterdagi badiiy sanʼatlar mavjud. Ular asosan sheʼriy asarlar tarkibida koʻproq qoʻllaniladi. Eʼnot (yoki luzumi molo yalzam), zulqofiyatayn, musajja (yoki muvajjah), tajziya, tashtir, tajnis, tarse, ito (yoki radd ul - qofiya) va hojib sanʼatlari ana shular jumlasidandir.

Bizga yaxshi maʼlumki, sheʼrning umumiy strukturalari va qofiya bilan bogʻliq poetik usullarning eng qadimiylaridan biri radd ul – qofiya yoki ito deb ataladi. Ito haqidagi mulohazalar Sakkakiyning “Miftohul - ulum”, Shamsiddin Muhammad ibni Qaysi Roziyning “Al – moʻjam fi maori ashʼor ul - Ajam” (1218-1233 yillar) Nasriddin Tusiyning

(vaf.072/1275/74) “Me’yor ul – ash’or”, Kamoliddin Xusayn Voiz Koshifiyning “Badoeъ ul afkor fi sanoeъ ul – ash’or” (1489 yillargacha yozilgan) asarlarida uchraydi. Shamsi Qays va Koshifiy asarlarida ito qofiya bilan bog’liq nuqsonlardan biri sifatida izohlangan. Tusiyy ham qadimgilarning fikriga aynan qo’shiladi. Demak, itoni mutlaqo inkor etish mumkin emas va u she’r san’atlaridan biri hisoblanadi.

Нозирги замон eron olimlaridan Sayyid Muhammad Rizo Doiy Javod ko’p manbalar asosida yaratgan “Ilmi badeъ dar zaboni forsiy” nomli asarida (radd ul – matla bilan birga) qofiya takrori bilan bog’liq hodisani radd ul – qofiya (qofiyaning qaytishi, takrorolanishi) nomi bilan alohida san’at sifatida izohlaydi.

XV asrning birinchi yarmidagi o’zbek she’riyatida ham radd ul – qofiya san’ati ishlatilgan. Chunonchi, Sakkokiy, Atoiy va Lutfiylarning majmualarida bu san’atning yopqin namunalari uchramiz. Lutfiy devonida to’rtta qo’sh radd ul – qofiya (bitta g’azalda ikkita qofiya takrorlangan) mavjud. Bular oddiy takror emas, aksincha, shoirning yuksak mahorati hap ikki takrorning go’zal chiqishini ta’minlagan va poetikaning qat’iy talablariga nisbatan jasorat bilan ijodiy yondashilgani nishonasidir.

Qofiya turli xalqlarda turlicha mavqeaga egadir. Masalan, fransuz, italyan, ingliz, yoki rus poeziyasini olmag, ularda albatta qofiyali va qifiyasiz she’rlarni uchramiz. Sharq xalqlari poeziyasiga kelsak, bularda arab tilida she’r qofiyasiz bo’lmagan. Arablar yo’lidan borgan forslar va suriyalilar ham she’rlari qofiyasiz bo’lmagan.

O’zbeklarning eng qadimgi she’rlarida, harro maqol va topishmoqlarda ham qofiya borligini ko’ramiz. XI asrda yashagan mashhup turkolor olim Mahmud Qoshg’ariy yzining “Devonu lug’atut turk” asari avvalida turk bilan arab tilini ma’lum marralarga barobar chopishib, barobar marraga yetadigan ikki otga o’xshatadi, ya’ni u turkiy tillar arab tilidan qolishmasligini, lug’atga boyligi hamda gramatik shakllarning ko’pligi jihatidan hech bir tildan qolishmasligini ta’kidlaydi.

Alilsher Navoiy “Muhokamatul – lug’atayn” asarida lug’at boyligi jihatidan o’zbek tilining fors tilidan ustunligini ifodalab, lafzlari ko’pligi, iboralari katta imkoniyatlarga egaligini ko’rsatib, fors tilidagi she’r san’atlarining hammasi va badiiy ifodalarini qo’llashda o’zbek tilining (turkiy) hech bir kamchiligi yo’qligini yozib, o’zbek poeziyasida qofiya xususida bir qancha imkoniyatlar borligini ko’rsatib beradi.

Qadimdan arablar, forslar va o’zbeklar tomonidan ishlatib kelingan qofiya turlari 36 ta bo’lishi kerak bo’lsa ham, bundan 16 tasi mavjud bo’lmagan. Qolgan 20 xil qofiyalarning namunalari o’zbek mumtoz poeziyasi namunalari va o’zbek xalq oғzaki ijodida qo’llanib kelingan.

Qofiya arab – fors poetikasida qadimdan mustaqil coha bo’lgan va uning maxsus nazariyasi yaratilgan. Bu nazariya Shams ad – din Muhammad ibn Qays Ar-Poziyning “Fors poeziyasining o’lchovlari lug’ati” va Abdurahmon Jomiyning “Qofiyalar risolasi” asarida, akademik I.Yu. Krachkovskiyning arab poeziyasiga oid tadqiqotlarida, B.Siriusning “Tojik poeziyasida qofiya” nomli asarlarida bayon etilgan. V.M.Jirmunskiy yzining “Qofiya, uning tarixi va nazariyasi” nomli kitobida rus qofiyasini sillabik, sillabik – tonik va tonik singari rus she’r tizimlari bilan bog’lagan holda o’rganish lozimligini alohida ta’kidlagan edi.

To she’r vujudga kelgunga qadar ham kishilar o’zaro aloqa qilgani hammaga ma’lum. Ular o’z nutqlarining ravon chiqishi va musiqiy eshitilishi hamda kishilar diqqatini kuchliroq jalb etish uchun sajnikaashf qilganlar. Keyinchalik inson tafakkuri o’lchovi nutqni – she’rni kashf etgach, sajning ikki turini (mutavoziy, mutarraf) misralar oxirida qo’lladi va shu turdan qofiya kelib chiqdi va qofiya mustaqil rivojlandi.

O’zbek adabiyotida qofiyaning kelib chiqishida saj birinchi bosqich bo’ldi. Biroq saj va qofiya qynan bir narsa emas. A.Bertels va chex adabiyotshunosi Yan Rinka ham sajni qofiyaga o’xshamasa-da, ular bir-biridan farqlanishini ko’rsatib o’tganlar. Bulardan ko’rinib turibdiki, saj va qofiya bir xil narsa emas. Ul;arnibir xil deb qarash xato hisoblanadi.

Xullas, o’zbek poeziyasida qo’llanilib kelinayotgan aruz va barmoq sistemasidagi qofiya va uning tabiati to’g’risida munozarali fikrlar yuzasidan bir qator fikrlar o’rtaga tashlandi. Chunonchi, ularning fikr va xulosalariga suyanadigan bo’lsak, o’zbek mumtoz poeziyasida ham dastlab arab-fors qofiya nazariyasi birdaniga mukammal tarzda qo’llanilgan, deyish qiyin. XI asr yozma yodgorliklarida xususan, “Qutadg’u bilik”da qofiya tarkibidagi udoshlarning mos tushishiga e’tibor bergan holda undoshlar orasida keluvchi unilarning muvofiq bo’lishiga hamma vaqt ham e’tibor qaratilavermagan. Alisher Navoiy va Bobur ijodlariga esa qofiya nazariyasi tobora mukammallashib brogan. Ular raviy va uning tovush elementlarini to’g’ri qo’llash bilan birga, o’zbek adabiyotida qofiya imkoniyatlarini kengaytirishga va yangi xususiyatlarini joriy etishga hapakat qilganlar. Chunonchi, Alisher Navoiy qofiyada unilarni qo’llash masalasida tor imkoniyatdan chekinishni tavsiya etadi va cho’ziq unliga qisqa unlini oxangdosh qilish mumkinligi haqida “Muhokamatul – lug’atayn” asarida shunday yozadi: “...aro lafzin “saro” va “daro” bila qofiya qilsa bo’lur...”¹ Bobur esa undosh tovushlardan ham qofiya kengligi mavjudligini

II BOB

Birinchi fasl

Maqollar – so’z san’ati maqsuli

Ma'lumki, folklor asarlarida xalqning fikr-o'ylari, intilishlari o'z aksini topgan. Zero, "Asrlar davomida xalq geniysi tomonidan ijod etilgan mazmunan boy, shaklan go'zal badiiy boylik hozirgi kunda xalqimizning o'ziga, millionlab zamondoshlarimizga xizmat etmog'i lozim".¹ Folklor durdonalari xalq hayotining uzoq yillik qomusi hamdir. Uning eng go'zal, qiziqarli janrlarini, ularning o'zaro munosabatlarini tahlil etish, har bir janrning o'ziga xos tomonlarini, obrazlar sistemasi va genezisini, morfologiyasini o'rganish folklorshunoslar oldida turgan muhim masalalardandir.

Ikkinchi fasl

Maqollarda qofiya san'ati

Badiiy jihatdan mukammallik maqollarning asosiy xususiyatlaridan biri hisblanadi. O'xshatish, tovushdoshlik, sifatlash, istiora, majoz, qofiya tasvir san'atlari keng qo'llanilganligi maqollarni boshqa janrlardan farqlab turadi. Maqollar mazmun jihatdan chuqur va ta'sirchan bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan ham mukammaldir. Maqollardagi o'xshatishlar, tovushdoshlik, mubolag'alar va majoziy obrazlar betakrordir. Masalan, "Ona bilan bola – gul bilan lola" maqolida istiora badiiy san'ati qo'llanilgan. Maqolda ona bilan bolaning gul va lolaga o'xshatilishining o'zi o'ta go'zal o'xshatishdir. Zero, inson hamma vaqt oliyzot, dunyoning mo'jisasi sanalgan, ayol esa eng buyuk hilqatdir. Bola esa lolaga qiyoslanganki, dunyoda loladan ham go'zalroq gul yo'q. Hatto bir zamonlar lola qimmatbaho tojlaru puldan ham yuqori baholangan, pul o'rnida ham ishlatilgan. "Olim bo'lsang, olam seniki" maqolida "o", "a", "s" tovushlari alliteratsiya – tovushdoshlik holatini yuzaga keltirgan. Ammo maqollarda o'xshatishning kam ishlatilganligiga guvoh bo'lamiz. Chunki o'xshatish maqol janri uchun harakterli holat emas.

Endi "Boy boyga boqar, suv soyga oqar" maqolini olib ko'raylik. Bu maqolda "boyga" va "soyga" so'zlari ichiki qofiyani, "boqar" va "oqar" so'zlari tashki qofiyani tashkil etadi. Eng harakterlisi, hap ikkala qofiyadosh so'zlarda ham faqat bitta tovushda farq bor. Bu o'z navbatda maqolning badiiy jihatdan mukammalligini ta'minlashda muhim ro'l o'ynagan. Ayni chog'da "b", "o", "e", "r", "s" kabi tovushlar vositasida tovushdoshlik holati vujudga keltirilgan. Bundan ko'rinib turibdiki o'zbek xalq maqollari mazmun jihatdan emas, badiiy jihatdan ham ajoyib so'z san'ati namunalaridir. Binobarin, xalq maqollarida qofiya masalasini tadbiq etish muhim vazifalaridan biridir. Zero, maqollar qadimgi davlatlardan boshlab xozir ham yosh avlodni ajdodlar havas qilgan barkamol inson darajasig ayetaklovchi asosiy tarbiya vositalaridan biridir.

Ma'lumki, maqollar tez esda qoladi va inson xotirasida bir umirga saqlanib qoladi. Maqollardan bolalar ham, kattalar ham bir hil foydalanadi. Buning boisi shundaki, maqollar

ritmik jihatdan uyushgan, ma'lum zarbli bo'lishi bilan birga, ularda ishlatilgan so'zlar ko'pincha oxangdoshlardir. Masalan, "Begona tuproq – devona tuproq"¹ maqollari 5+5 tarzda bo'g'inlar guruhi (turoqlar)ga bo'lingani uchun bu jumlada ohang paydo bo'ladi va maqolning eslab qolishini osonlashtiradi. Jumla boshida kelgan begona, devona, so'zlari "b" va "d" harflari almashinish bilan yangi so'z hosil qilgan. "Dost yig'latar, dushmang yig'latar" (98-bet) maqolar ham ritmik uyushganligi tufayli tezda esta saqlanib qoladi. "Yon qo'shnim – jon qo'shnim" (256-bet) maqolida bu jihatdan yan aham ustunlikka ega. Chunki unda ritmik ohangdorlikdan tashqari, ayrim so'zlar orasidagi ohangdorlik ham mavjudki, bu xil so'zlarning yotga olinishini keyin yan aesa tushishini osonlashtiradi. Maqol tarkibidan "yon" va "jon" so'zlari bunga misol bo'ladi.

Bundan keyingi misollarda ushbu kitobning saxifalari ko'rsatilada.

Shunday qilib, qofiya maqollar vositasi bilan o'z fikrlarimizni ifoda etganligimizda katta g'oyaviy va estetik vazifani bajaradi.

Qofiya faqat poeziyadagina emas, maqollarda ham muttasil ishlatiladi. Demak, qofiya oddiy nutqdan poeziyaga ko'chgan hodisadir. Chunki maqollar poetic asarlardan ilgari yaratilgan. Bundan tashqari maqolda bitta fikr ifoda etiladi, she'r esa ko'pincha fikr va xislarning mujassamlashgan shaklidir.

O'zbek xalq maqollarida qo'llanilgan qofiyalar va ajumlalar bandlarnin ghegarasini belgilamaydi va jumla boshida yoki birinchi misrada boshlangan fikri tugallaydi:

Ayrimagin elingdan,
Quvvat ketar belingdan. (9-bet)

1

Vatan gadosi – kafan gadosi (9-bet)

Maqollardagi "el", "bel" va "vatan", "kafan" so'zlarining qofiyalangani fikrni tugallaydi, unga ohangdorlik bag'ishlab munosib shakl beradi.

Bu yerda V.Maekovekiy tomonidan qayd etilgan bir qonuniyat o'z kuchini ko'rsatadi: qofiya "bizni avvalgi misraga qaytaradi, bir fikrni shaklantiruvchi hamma misralarni jipslanib turushiga majbur etmaydi"¹ ya'ni qofiya ma'noga tobe, uni eng yaxshi ifodalashvositasi sifatida namoyon bo'ladi.

¹ 1 Ўзбек халқ мақоллари. М., "Шарқ", 2003, 9-бет.

Myakovskiy qofiyaning ma'no tashuvchi vazifasini alohida uqtirib, shoirlar asosiy mazmunni ifodalovchi so'zlarni atayin misralarning oxiriga qo'yib qofiyalashga intilishlariniqayd etgan edi. Dunyoning ko'pchilik xalqlari spoeziyasida qofiya odamga misralarning oxirida kelgani uchun she'rga asosiy fikrni ifoda etuvchi so'zlar misralarning oxirida qofiyalanib keladilar, ya'ni qofiya qat'iy suratda mazmunga bo'sundiriladi. Bunday xususiyat maqollarga ham xosdir.masalan:

*Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni. (9-bet)*

*Vatani borning baxti bor,
Mehnati borning – taxti. (9-bet)*

Biroq qofiyalar maqollarning boshida ham kelishi mumkin:

*Vatangado bo'lguncha,
Kafangado bo'l. (9-bet)*

*Qing'ir odam – bir tomon,
Qirq odam – bir tomon.(51-bet)*

Maqollarda o'zak qofiyalar juda ko'p qo'llanilgan. Masalan:

1

Olmadan bodom bo'lmas,
Tegi past odam bo'lmas. (67-bet)

Omon bo'lsang, osh yersan,
Yomon yuesang, tosh yersan. (67-bet)

Og'ir yukka nor kerak,
Yov talashda yer kerak. (153-bet)

Suv keltirgan mard,
Suv bermagan nomard. (153-bet)

¹ 1 В.В Мяковский.полк. собр. соч. Т.12.1959 стр 105

Ma'luki, 20 ta qo'shimchali qofiya mavjud. Ulardan juda ko'pi maqollarda qo'llangan.
Chunonchi:

Nomard ishing bilmasin,
bilib bag'ring tilmasin (152-bet)

Kerilganning to'yiga bor,
Maqtanganning – uyiga. (186-bet)

Shoh – gadoning farqi yo'q,
Inson - ulug', narxi yo'q. (237-bet)

Kelinim bor deb kerilma,
Ish buyursa, erinma. (257-bet)

Ma'lumki, o'zbek maqollari bizga qadar yetib kelgan eng qadimiy xalq og'zaki namunalaridir. Biroq maqollarning poetic xususiyati, hususan, maqollarda qofiya qo'llanilishi masalasi hanuzgacha mukammal o'rganilgan emas. Klassik nazariyaga ko'ra qofiya negizini raviy harfi tashkil qiladi. Raviylari mos bo'lmagan qofiyali she'r she'r xusoblanmaydi yoki aybli hisoblanadi.¹ Maqolalarning qofiyalarni tadqiq etishi shuni ko'rsatadiki, maqollardagi raviylar asosan mos keladi, mos bo'lmagan o'rinlarda esa o'zaro ohangdosh bo'lgan tovushlardan foydalanilgan.

Maqollarning qofiyalarini tadqiq etish shuni ko'rsatmoqdaki, turkey tillardagi poeziya qofiyasida raviyning o'zakda kelishi hamma vaqt shart bo'lmagan. Shunga ko'ra, maqollardagi qofiyalardagi raviyning affiksga ko'chgan holati qadimgi turkey an'ananing kuchli inersiyasi natijasidir. Maqollarda odamda ko'proq radifli qofiyalar uchraydi. I.V Stebleva to'g'ri ta'kidlaganiday "Ilk turk yodgorliklarida bo'lganidek alliteratsiyani ishga solgan".²

Erning yuragi – sherning yuragi (112-bet)

Bu yerda "e" va "sh" harflari almashinishi vositasida hosil bo'gan "er" va "sher" so'zlari qofiyadosh bo'lib kelgan.

Qozon o'g'irlagan qutular,
Cho'mich ushlagan tutilar. (208-bet)

Ushbu misolda ham "q" va "t" undoshlari almasinishi natijasida qofiyadosh so'zlar yasalgan.

Maqollarda leksikofonetik qofiyada keltirish ham uchraydi. Klassik nazariyaga koo'ra ruxsat etilmaydigan bu hodisaning ildizlari qadimgi turkiy yordorliklar qonuniyatlariga borib taqaladi. Maqollarda leksikofonetik qofiyada keltirish ham uchraydi. Klassik nazariyaga koo'ra ruxsat etilmaydigan bu hodisaning ildizlari qadimgi turkiy yordorliklar qonuniyatlariga borib taqaladi.

Chunki “so'z takrori va affiks variatyasi bilan birga takror, aftidan, qofiya va so'z boshidagi tovushlar alliteratsiyasiga nisbatan qadimiyroqdir”.² masalan:

Xulosa

O'zbekiston Persublikasining “Ta'lim to'g'risida” gi Qonuni va 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Persublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalqning milliy-madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlar va umumbashariy qadryatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogic shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi ta'kidlanadi. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodini o'rganish ana shu ulug'vor vazifalarni ijobiy xal qilishga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Boisi muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek “yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassis yoshlarimiz”¹ ni ma'nan yuksak qilib tarbiyalamay turib bu vazifani amalgam oshirib bo'lmaydi. demak, xalq va mamlakat kelajagini o'tmishqadiryatlarimiz tasavvur etish qiyin. Zero, “Milliy mafkura, avvalambor, o'zligimizni, muqaddas an'alarimizni anglashtuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart”.² Chunki mafkura o'tmish va kelajak o'rtasidagi ko'prikanligini unutmasligimiz lozim. Bu borada biz xalq og'zaki ijodi durdonalari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xalqimiz o'z avlodiga insoniyat tarixidagi eng ibratli fazilatlar meros bo'lishini orzu qilgan va hozir ham shunday. Bu oliy tilak xalqimizning maqolu topishmoqlari, afsona va rivoyatlari, latifayu loflari, xalq qo'shiqlari, termalari, ertagu dostonlari, askiya va allalari, kabi bebaho durdonalarida o'zining yorqin ifodasini topgan. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, xalqimizning bacha fazilati, falsafasi, duynoqarashi, turli hayotiy vaziyatlarga munosabati o'zbek xalq maqollarida aks etgan.¹ Vatan va vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik,

¹ 1 Президент Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 17 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасидан. “Хуррият”, 2009 йил, 6-декабр. 3-бет

to'g'rilik, yaxshilik, adolat va insof, do'stlik, tinchlik, mardlik va jasurlik, donolik ilm-hunar, tarbiya va odat, odob-ahloq, mehmon va mehmondo'stlik, go'zallik, kamtarlik, baxtva omad, sabr-qanoat, muhabbat, oila va qo'shnihilik, umid va ishonch, erk va ozodlik, or-nomus, g'uru, samimiylilik, vaqt va fursat qadri, yoshlik va qarilik haqidagi maqollar ana shular jumlasidandir. Xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining oynasi, xalqimizning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga, munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, ahloqiy – estetik va falsafiy qarashlari, o'zligini, donishmandligini aks ettirgan maqollar qadim-qadimdan yozma va og'zaki adabiyotda ham, og'zaki nuqtda ham qo'llanib kelgan va hozir ham shunday. Biz xalq maqollari bilan tanishish orqali ulardan Vatan, xalq, ona, ilm, g'urur kabi muqaddas tushunchalar ekanligini bilib olamiz Xalqimizning o'tmishi bilan, urf-odatlari, kasb-kori bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Axir yillar davomida tajribadan o'tgan, badiiy jihatdan mukammallashib hikmatli so'zlar majmuasiga aylangan har bir maqolning o'zi biz uchun bebaho darslik va eng yaqin maslahatgo'y emasmi? Birgina "Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar, Yurtidan ayrilgan o'lguncha yig'lar",¹ degan xalq maqolining o'zidaolam ma'no bor. Bu maqolni diliga jo qilgan inson hech qachon o'z vatanini tark etmaydi, el-yurtiga hiyonat qilmaydi, o'z yurtini ko'z qorachigidek ardoqlaydi. Bu maqollarning naqadar katta tarbiyaviy kuchga ega ekanligining yorqin ifodasidir.

Xalqimiz qadimdan o'z farzandlarining faqatgina jismoniy jihatdan yrtuk va barkamol bo'lidhini emas, bamoi ularning ziyrak, o'tkir xotirali, tez va to'g'ri fikrlovchi inson bo'lishini orzu qilgan. Bu borada shubhasiz aql-idrok, o'kir xehn va donishmandlik sinovi bo'lgan topishmoqlarning o'rni beqiyosdir. Hattoki ertak va dostonlarning shaxmat o'ynash, turli jumboqlarni yechish shartlari bor. Qahramonlar ularni hozirjavoblik bilan yechsalargina murod-maqсадiga yetganlar. Topishmoqlar bolalarni ham, kattalarni ham kuzatuvchanlikka, hayotni mukammalroq bilishga, sinchkovlikka o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Paxta haqidagi topishmoqni esa olaylik:

Oldin gul edi nuqul,
Gul yong'oq bo'ldi butkul.
Yorilib ketgach yong'oq,
Yana gul chiqdi oppoq.
Juda ham lo'ppi o'zi,

2 Каримов И.А. Жамиятимиз мафкуриси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этин.

“Тафаккур” журнали, 1998, 2-сон,8-бет

Tagida bor yulduzi.
Terib uysang, bo'lar tog',
Urug'idan chiqar yog'.¹

Albatta bunday tarzidagi topishmoqlar kishini o'ylashga, mushohada qilishga, tabiat bilan oshno bo'lishga da'vat etadi. Topishmoqlardagi nuqul – butkul, yong'oq-oppoq, o'zi-yulduzi, tog'-yog' kabi betakror qofiyalar esa tafakkurimizni charxlab, nutqimizni ravon qilish, ta'sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Maqollarda ham, topishmoqlarda ham ularning badiiy estetik ta'sirchanligini oshirish uchun misralarning yodda qolishida muhim vazifa bajaradigan qofiyaning musiqiyligiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Chunki bular xalq donoligining, zukkoligining yorqin isbotidir.

Maqolarda ham, topishmoqlarda ham 20 ta qo'shimchali qofiya turlaridan ko'pchiligi qo'llangan. Buning o'zi xalq og'zaki ijodi namunalarida qofiya repertuarining boyligini ko'satadi. Maqollarda va topishmoqlarda qo'llangan qofiyalar orasida aa, ab, bv, aaaa, aaaba, bbbbaa, aaabb, vvvbb, aaabbaa va bundan farqlanuvchi turli shakllari qo'llangan. Ularda qofiya xatolari ham yo'q emas. Maqol va topishmoqlardagi qofiyalarga formal bir hodisa sifatida qarash kerak emas, balki maqol va topishmoqlardagi mazmun, ma'noni yuzaga chiqaruvchi muhim vosita deb qarash kerak.

1

Shuning uchun ham so'z-qofiyaning ma'no beradigan ibora, birikma tarzida olib, kontekst bilan uzviy bog'liq holda olish to'g'ri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. "O'zbekiston", 1997
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008
3. Maxmud Qoshg'riy Devonu lug'atit turk .III.tom, T., 1963
4. O.Madayev. T.Sobitova O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T. "Sharq" 2001

¹ 1 Ўзбек халы мақоллари Т... "Шарк", 2003, 10-бет

2 З.Нусанова. Топишмоқлар. Т., 1981, 295-бет

5. Imomov K. Mirzayev T. O'zbek xalq og'zaki poetik
Sarimsaqov B. Safarov O. ijodi.T. "O'qituvchi" 1990.
"O'zbek tili va adabiyoti"
6. B.Sarimsaqov. "Tajnis". 1971 yil "O'zbek tili va adabiyoti" 5-son.
82-82-betlar
7. B.Sarimsaqov. "Saj va qofiya". 1972, "O'zbek tili va adabiyoti" 1-
son. 78-81-betlar
8. H.Mirhaydarov. "Qofiyaning lirik she'r kompozitsiyasini
yaratishdagi ro'li". 1972,4-son 51-55-betlar